O‘ZBEK MILLIY VA JOZIBALI MATOLARI

O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi
Noshirlik ishlari va axborot texnologiyalarini joriy qilish
bo‘limi yetakchi mutaxassisi
Xalilova Yasmina Ravshan qizi,
Muzey buyumlari va fond to‘plamlarini qayd etish va
ro‘yxatga olish bo‘limi ilmiy xodim
Ikromova Gulhayo Zayniddin qizi

“O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q”
I.A.Karimov

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qadimiy matolarning tarixiy va madaniy ahamiyati, mato to‘qish texnologiyasi va uning o‘rganilishi, tadqiqotlar davomida kashf etilgan turli arxeologik topilmalar va devoriy suratlar haqida, matolarning ijtimoiy hayotda va zamonaviy dizayn yo‘nalishida qo‘llanilishi haqidagi ma’lumotlari yoritiladi.*

Kalit so‘z: *devoriy suratlar, Zarautsoy, Zandani qishlog‘i, zandanicha, atlas, adras, beqasam, shoyi.*

Аннотация: *В данной статье освещаются историческое и культурное значение древних тканей, технология их ткачества и изучение, различные археологические находки и настенные росписи, обнаруженные в ходе исследований, а также сведения об использовании тканей в общественной жизни и в современном направлении дизайна.*

Ключевые слова: *настенные росписи, Зараутсай, деревня Зандани, зандани-ча, атлас, адрас, бекасам, шёлк.*

Annotation: *This article highlights the historical and cultural significance of ancient fabrics, the technology of weaving and its study, various archaeological findings and wall paintings discovered during research, as well as information about the use of fabrics in social life and in modern design trends.*

Keywords: *wall paintings, Zarautsoy, Zandanivillage, zandanicha, atlas, adras, beqasam, silk.*

Matolar — insoniyatning eng qadimiy moddiy madaniyat yutuqlaridan biri bo‘lib, etik-estetik jihatidan muhim kashfiyot hisoblanadi. Paleolit davrida odamlar g‘orlarda yashab, ovchilik va termachilik bilan shug‘ullanganlar. O‘zi ovlagan hayvonlar terisidan sovuq iqlimdan himoyalanish uchun kiyimlar tikishgan. Bunga isbot sifatida arxeologlar O‘zbekistonning janubiy hududidagi Hisor tog‘ tizmasining janubiy-g‘arbini o‘rganishgan. Bu hudud Ko‘hitang tog‘ining sharqiy yon bag‘rida bo‘lib, mo‘jaz Zarautsoy darasidagi qoyatosh suratlarida ham qadimgi insoniyat ajdodlari tasvirlari aks ettirilgan. Mezolit davriga tegishli bu tasvirlar ungir va kamar toshlarga ishlangan bo‘lib, 200 dan ortiq devoriy suratlarda odamlar yopinchiqsimon kiyimlar bilan tasvirlangan[1]. Bu arxeologik topilmalar shuni isbotlaydiki, eng qadimgi davrlardan boshlab odamlar hayvon terisidan kiyimlar tika boshlashgan. Ular nafaqat kiyinish ehtiyojlarini qoplash, balki sovuqdan, quyoshdan, shamoldan himoya qilish bilan birga, madaniy hayotda ham o‘z o‘rniga ega bo‘lgan. Mato ishlab chiqarish sohasi shu zaylda asta-sekin qadim zamonlardan to hozirgi kungacha mohir tikuvchi va ustalar tomonidan turli texnikalar, tabiiy materiallar (masalan, paxta, jun, ipak) orqali yo‘lga qo‘yilgan. Har bir hududning iqlimi, xomashyo resurslari, savdo yo‘llariga yaqinligi va etnik-

[1] Sattorova.X.Zarautsoy qoyatosh tasvirlari va ularning o‘rganilish tarixi.,Yangi O‘zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali-1-jild 3-son.

madaniy an’analari mato ishlab chiqarish uslublariga o‘ziga xoslik bag‘ishlagan.

Matolarni to‘qish Buxoro, Namangan, Marg‘ilon kabi bir qator hududlarda mohir hunarmandlar tomonidan qo‘l mehnati asosida tayyorlangan. Xususan shu qatorda Buxoroning yangi turistik manzillaridan biri, tarixiy qadamjo “Zandani” qishlog‘i, qadim tarixga egaligi bilan mashhurdir. Zandona (Zandana) - qadimiy qishloqlardan biri va bu manzil tepalik ko‘rinishiga ega bo‘lgan. Hozirda qadimiy qishloq Buxoro viloyatining Peshku tumanida joylashgan bo‘lib, tarixda “Zandani” atamasi ilk bor Abu Bakr Muhammad ibn Jafar Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida tilga olingan[2]. Zandonachi matosida gullar taqsimli bo‘lib, yirik durlar xalqasi bilan hoshiyalangan aylana va boshqa shakldagi turunjlar bir maromda takrorlanadi. Turunjlarda ko‘pincha bir-biriga ro‘para turgan juft sher, qo‘y, fil va boshqalarning qat’iy tantanali holatdagi tasvirlari berilgan. Ularning tanasi va tana bo‘laklari naqshlar bilan ishlab chiqilgan.[3]

Qadimiy matolar insoniyatning kundalik ehtiyojidan kelib chiqqan holda yaratilgan bo‘lsada, ular asta-sekin xalqning madaniy xotirasi va estetik qarashlarini mujassam etuvchi san’at namunalariga aylangan. Tabiiy xomashyo, qo‘lda bajarilgan mehnat va ramziy bezaklar qadimgi matolarni nafaqat moddiy madaniyat yodgorligi, balki ma’naviy meros sifatida ham qadrlangan. Zamonaviy milliy matolar ana shu tarixiy an’analarning mantiqiy davomidir. Bugungi kunda atlas, adras, beqasam kabi matolar ishlab chiqarilishida texnologik jarayonlar takomillashgan bo‘lsa-da, ularning badiiy-kompozitsion yechimlarida qadimgi XIX asrda o‘zbek milliy kiyimlarini tikishda ishlatiladigan asosiy matolar sirasiga ip, gazlama, ipak, nimshoyi va jun gazlamalar kiradi.

[2] Abu Bakr Narshahiy. Buxoro tarixi
[3] УЗБЕКИСТОН ХУНАРМАНД ЧИЛИГИ ВА АМАЛИЙ САНЪАТИ ЭНЦИКЛОПЕДИЯ., I том 50-бет

Milliy matolarimizdan biri bu atlas matosi bo‘lib, “atlas” so‘zi arab tilidan tarjima qilganda tekis, silliq degan ma’noni anglatadi. Tanda va arqoq iplar tabiiy ipakdan to‘qiladigan bir yuzlama silliq mato. Tanda ipi abrbandi usulida bo‘yab bezatiladi. Alohida ishlov berib atlasga jilo beriladi, shunga ko‘ra u tovlanib turadi. Ilgari mato yuzasiga kudung urulgan, hozirgi kunda atlas silliq sathli baraban – kalandrdan o‘tkaziladi. O‘zbek atlaslari rang-barang nafis gullarga boy, bu gullar bir-biri bilan uyg‘unlashib, matoda yaxlit go‘zal bir naqshni hosil qiladi. Atlas matosi o‘zining silliq yuzasi, jilosi va tantanavor ko‘rinishi bilan ajralib tursa, o‘zbek milliy to‘qimachiligida undan kam bo‘lmagan ahamiyatga ega yana bir mato turi — adras hisoblanadi. Ikkala mato ham qadimiy an’analarga tayangan holda yaratilgan bo‘lib, rang-barang naqshlari va tabiiy tolalardan to‘qilishi bilan umumiy jihatlarga ega. Shu bilan birga, adras matosi atlasdan farqli ravishda kundalik va marosim liboslarida keng qo‘llanilishi, yarim ipak tarkibi hamda o‘ziga xos to‘qilish texnikasi bilan ajralib turadi.

Adras matosi esa yarim ipak tarkibi, rang-barang naqshlar hamda mustahkamligi bilan ajralib turadi va kundalik hamda marosim kiyimlarida keng foydalaniladi. "Adras" matosi abr iplar bilan gul solingan nimshoyi gazmol bo‘lib, tanda ipi tabiiy ipakdan, arqog‘i qalin ipdan to‘qilgan gazlamadir. Guli ikki tomonlama bo‘lganligi uchun ayrim joylarda “duro‘ya” deb ham ataladi. Kudunglashish natijasida yuqori navli adrasning bir tomoni atlasday silliq bo‘lib, ikki tomoni tovlanib turadi. Adras 1920-yilgacha Marg‘ilon, Xo‘jand, Buxoro, Samarqand va boshqa joylarda to‘qilib, O‘rta Osiyo bozorlaridan tashqari boshqa hududlarga ham tarqalgan. Beqasam matosi yo‘l-yo‘l gazmol bo‘lib, undan erkak, ayol va bolalar uchun kundalik kiyiladigan to‘nlar, ko‘rpa-ko‘rpachalar tikishda foydalanilgan. Adras matosi misolida o‘zbek an’anaviy to‘qimachiligida rang va naqshning badiiy uyg‘unligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Biroq milliy matolar tizimi faqat adras

bilangina cheklanib qolmaydi. Uning texnologik va tarixiy jihatdan yaqin davomchisi bo‘lgan “beqasam" matosi ham o‘ziga xos tuzilishi va estetik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Beqasam – yo‘l-yo‘l gazmol bo‘lib, unda erkak, ayol va bolalar uchun kundalik kiyadigan to‘nlar, ko‘rpa-ko‘rpachalar tikishda foydalanilgan. Beqasam yo‘l-yo‘l gulli pishiq mato tanda ipi ipak arqog‘i ipdan to‘qiladi. Arqoq ipi tanda ipidan yo‘g‘onroq bo‘lgani uchun mato yuzasida ko‘ndalang chiziqlar (g‘adir-budurlik) hosil bo‘ladi. To‘qish jarayonida arqoq ipi ho‘llanib turiladi. Maxsus ishlov berib kudumlangandan so‘ng beqasamning bir tarafi atlasdek silliq, bir tarafi tovlanib turadi. Oldindan bo‘yalgan tanda iplari ishlatilishi natijasida Beqasamning guli ikki tomonlama xilma-xil va rang-barang bo‘ladi. O‘rta Osiyoning yirik ipakchilik markazlarida ishlab chiqarilgan beqasamlar qalin-yupqaligi, mato enining tor-kengligi, rang xillarining tanlanishi, yo‘l-yo‘l gullarining tartibi jihatidan bir-biridan farq qilgan. Buxoro – Samarqand beqasamlarining arqoq ipi yo‘g‘on, mujassamoti markazi oddiy, bir me’yorda takrorlanuvchi aniq keng (pushti, sariq, zangori yoki pushti, binafsha, sariq tusli) yo‘llardan, qirg‘og‘i esa hoshiya yo‘llardan iborat. Bundan tashqari, “zanjira” gullar, abr nusxa yoki turli kvadrat, chiziqcha, mayda gullar va boshqa tasvirlar qo‘shib bezatilgan. Mahalliy yorqin koloriti ranglarga bo‘yalgan beqasam Buxoro–Samarqand vodiysida olacha nomi bilan ham mashhur.

Farg‘ona vodiysining beqasamları yupqa va mayin, chunki arqoq ipi ingichkaroq; guli, asosan, sovuq feruza-binafsha ranglardan iborat, ko‘proq bo‘r-ko‘k tusli va turli xil yashil ranglarning bir-biriga mayin o‘tishi bilan boshqa beqasamlardan ajralib turadi. Ba’zi an’anaviy gullari (“Besh kashta”, “Bayroq”) da yashil rangga yorqin pushti rang aralashgan. Qadimda kuyov to‘nlariga ishlatilgan. Namangan “oq beqasami”, asosan, oq, sariq, yashil tusli qilib to‘qilgan. Namangan, Marg‘ilon, Qo‘qon to‘qimachilik fabrikalarida

beqasamning oq, chiviq, olti katak, marmar va boshqa turlari ishlab chiqariladi. Beqasamdan kiyim (to‘n, kamzul, ko‘ylak va boshqalar), ko‘rpacha va boshqalar tayyorlanadi. Beqasam ham har xil markazlarda ishlab chiqarilishi va ishlatilishiga qarab yo‘l-yo‘l naqshlarining rangbarangligi bilan ajralib turgan. Masalan, har xil keng va tor yo‘llar Buxoro matolari uchun xos bo‘lsa, Farg‘ona va Toshkentda to‘q rangli tor yo‘lli, Xorazmda qizil alvon tusli, Qarshida bosiq va turfa rangli matolarda namoyon bo‘lgan. Beqasam matosi asosan kundalik kiyim-kechaklar va milliy liboslar tikishda qo‘llanilib, o‘zining soddaligi, mustahkamligi hamda rang-barang yo‘l-yo‘l naqshlari bilan ajralib turadi. Ushbu mato xalq orasida keng tarqalgan bo‘lib, ayniqsa qulayligi va chidamliligi sababli qadrlanadi. Biroq o‘zbek milliy matolari orasida beqasam bilan bir qatorda yanada nafis va hashamatli matolar ham mavjud.

Shunday matolardan biri — shoyi matosi hisoblanadi. Shoyi matosi o‘zining mayinligi, yaltirab turishi va nafis tuzilishi bilan ajralib turadi. Shoyi matosi — toza ipakdan tarkib topgan bo‘lib, u juda nozik to‘qilgani, mayinligi bilan e’tiborni jalb etadi. Bu harir matoni batik uslubida bo‘yab, turli sharflar tayyorlash hozirgi paytda juda urfga kirgan. Shoyi ipak mato 19-20 asr o‘rtalarida O‘rta Osiyoda ipakchilik rivojlangan barcha yirik markaz (Farg‘ona, Buxoro va b.)larda ishlab chiqilgan. Shoyining arqoq va tanda iplari bir xil ingichka ipak iplardan iborat bo‘lib, sodda to‘qilgan: har bir arqoq ip orasiga tanda iplar tushgan, yuzasi silliq, o‘ng-tersi bir xilda bo‘lgan; eni 33-35 sm, 20-asr 30-yillaridan 50-54 sm ga kengaygan. Shoyining gulsiz sidirg‘a va gulli (abr gulli), yo‘l-yo‘l, katak gulli xillari ma’lum. Turli ipakchilik markazlarining shoyilari qalin-yupqaligi, gullari, rangi (koloriti) bilan farqlangan.

Farg‘ona shoyisi yupqa va pishiqligi, yumshoq va mayinligi bilan boshqa shoyilardan ajralib turgan; abr gullari to‘lqinsimon yoki uslublashtirilgan novda, gul shaklida, rangi binafsha, sariq, feruza, kulrang. Buxoro shoyisi qalin to‘qilgan tanda iplari zichligi tufayli qattiq, g‘ijimlanmaydigan hamda suv

o‘tkazmaydigan bo‘lgan; gullari katta doira, tuxumsimon shakllarda, ikki chetlari qator yo‘llar S yoki tuxumsimon chiziqlar bilan hoshiyalangan; rangi ko‘proq qizil va sariq, oq, nafarmon, och nastarin, feruzarang. 20-asr boshida Samarqand, Toshkentda Farg‘onadan keltirilgan yo‘l-yo‘l shoyi keng tarqalgan; binafsha, qora, oq va tillarang – sariq, yo‘lli shoyidan kiyim kiyish urf bo‘lgan. Shoyida kishilik ko‘ylaklar, belbog‘ va boshqalar tayyorlangan, erkak hamda xotinlarning zar cho‘pon va baxmal to‘nlari astarlariga, badiiy buyumlar (so‘zana, choyshab va boshqa)ga ishlatilgan. Shoyi Buxoroda 20-asr boshlarigacha, Farg‘ona vodiysida 60-yillargacha ishlab chiqarilgan. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda, xususan, Farg‘ona vodiysida shoyi gazlama to‘qish qayta tiklandi. Hozirda Marg‘ilon va Qo‘qon shoyi gazlama tayyorlash markazlaridir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, zandanicha, atlas, adras va beqasam matolari o‘zbek milliy to‘qimachilik san’atining bebaho namunalari hisoblanadi. Ushbu matolar tabiiy xomashyodan tayyorlanishi, nafisligi, rang-barangligi va mustahkamligi bilan ajralib turadi. Har bir mato turi o‘ziga xos to‘qilish usuli, bezaklari hamda qo‘llanilish sohasi bilan milliy madaniyatimiz va urf-odatlarimizni yaqqol aks ettiradi. Bugungi kunda bu matolar nafaqat milliy liboslarda, balki zamonaviy kiyim-kechak va dizayn sohalarida ham keng qo‘llanilmoqda. Shunday ekan, milliy matolarimizni asrab-avaylash, ularni chuqur o‘rganish va kelajak avlodga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Каримов.И.А., Юксак маънавият –енгилмас куч. Тошкент., «Маънавият» 2008. Б-25

2. Xoliqova.M. O‘zbekistondagi an`anaviy va badiiy to`qimachilikning shakllanishi. Maqola. 2023. B-323

3. Habibullayev. P.,O‘zbek milliy kiyimlari XIX-XX asrlar. Toshkent. 2006. B-11

4. Ҳакимов.А, Булатов.С, Мирзаева.Л, Мухутова.Л. Ўзбекистон ҳунармандчилиги ва амалий санъати. Энциклопедия. 2016

5. https://uza.uz/oz/posts/atlas-va-adras-milliy-qadriyatlarimiz-jilosi_500982

6. Ming yillik tarixga ega va butun jahonda mashhur “Zandanicha” matosi tarixi

7. To'qimachilik inqilobi tarixi - Acme Mills